

INSONIYATGA YO‘LLANGAN OGOHLANTIRISH: DOSTOYEVSKIYNING "JINOYAT VA JAZO" ROMANIDAGI FALSAFIY-ETIK QARASHLARI

G‘ayratova Dilnavo G‘olib qizi

O‘zDJTU, “Ingliz filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon adabiyotining yirik namoyandasi F.M. Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" romanidagi falsafiy-etik konsepsiyalar tadqiq etiladi. Tadqiqotda insonning mutlaq erkinlikka intilishi va individualistik "tanlangan inson" nazariyasining halokatli tabiati vijdon hamda ijtimoiy axloq prizmasi orqali tahlil qilinadi. Muallif qahramon ruhiyatidagi ontologik inqiroz, jinoyatning metafizik oqibatlarini va shaxsning ma'naviy degradatsiyadan qutilish yo'llarini badiiy matn tahlili asosida yoritib beradi. Maqolada Dostoyevskiyning insoniyatni axloqiy intilishdan mahrum bo'lish xavfidan ogohlantiruvchi gumanistik qarashlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: Dostoyevskiy, Raskolnikov, falsafiy-etik tahlil, vijdon, tanlangan inson nazariyasi, axloqiy inqiroz, ma'naviy tirilish, ontologik tahlil, individualizm.

Аннотация. В данной статье исследуются философско-этические концепции романа Ф.М. Достоевского «Преступление и наказание», являющегося шедевром мировой литературы. В работе через призму совести и социальной морали анализируются стремление человека к абсолютной свободе и разрушительная природа индивидуалистической теории «высшего разряда людей». На основе анализа художественного текста автор раскрывает онтологический кризис в душе героя, метафизические последствия преступления и пути спасения личности от духовной деградации. В статье научно обоснованы гуманистические взгляды Достоевского, предостерегающие человечество от опасности утраты этических ориентиров.

Ключевые слова: Достоевский, Раскольников, философско-этический анализ, совесть, теория «избранного человека», нравственный кризис, духовное возрождение, онтологический анализ, индивидуализм.

Abstract. This article explores the philosophical and ethical concepts within F.M. Dostoevsky's "Crime and Punishment," a masterpiece of world literature. The study analyzes the human pursuit of absolute freedom and the destructive nature of the individualistic "extraordinary man" theory through the prism of conscience and social morality. Based on the analysis of the literary text, the author highlights the ontological crisis in the protagonist's soul, the metaphysical consequences of the crime, and the paths to escaping spiritual degradation. The article scientifically substantiates Dostoevsky's humanistic views, which warn humanity against the danger of losing ethical aspirations.

Keywords: Dostoevsky, Raskolnikov, philosophical-ethical analysis, conscience, extraordinary man theory, moral crisis, spiritual rebirth, ontological analysis, individualism.

Kirish. Dostoyevskiy Fyodor Mixaylovich (1821-1881) – rus adabiyotida o'ziga xos, katta o'rin egallagan adib bo'lib, ijodiy faoliyatini 1884-yilda boshlagan. Dostoyevskiy ijodi, garchi ziddiyatli bo'lsada, rus va jahon adabiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Dostoyevskiy 19-asrdagi realistik roman janrini yangi o'ziga xos tomonlar bilan boyitdi. Adib to'laqonli badiiy obrazlarda nafaqat voqealar oqimini, insonlar taqdirini, ichki kechinmalarini, balki jamiyat ma'naviy hayotidagi fojiaiy konfliktlarni

ham tasvirlab bera oldi. O'zining o'tkir syujetli romanlarida fikrlarning keskin kurashini, g'oya va dunyoqarashning fojiviy to'qnashuvini mahorat bilan oqqa tushirdi. Uning romanlari vazmin tasvir uslubi emas, aksincha, sof dramatik janrlarga xos keskinligi va liro-publitsistik pafosi bilan yuksak e'tirofga sazovordir. Fyodor Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" romani yozilganiga bir yarim asrdan oshgan bo'lsa-da, u hamon dolzarbligini yo'qotmagan. Nega? Chunki bu asar shunchaki Rodion Raskolnikov ismli talabani fojiasi emas, balki insoniyat tarixida tez-tez uchrab turadigan "maqsad vositani oqlaydi" degan sovuq va xavfli aqidaga berilgan raddiyadir. Muallif ushbu asari orqali dunyoni halokatli g'oyalardan ogohlantiruvchi ma'naviy manifest yaratgan.

Asosiy qism. Falsafiy isyon: "Tanlanganlar" nazariyasi. Raskolnikovning fojiasi uning moddiy yetishmovchiligida emas, balki uning miyasida tug'ilgan "g'ayrioddiy shaxslar" nazariyasidir. U insoniyatni ikki qutbga bo'ladi: qonunga bo'ysunuvchi "oddiy odamlar" va buyuk maqsad yo'lida qonunni buzishga, hatto "vijdonan qon to'kishga" haqli bo'lgan "tanlanganlar". Dostoyevskiy bu yerda xudbinlik va mutlaq erkinlik qayerga olib borishini ko'rsatadi: agar axloqiy chegaralar buzilsa, insoniyat ma'naviy xaosga yuz tutadi.

Filologik tahlil shuni ko'rsatadiki, qahramonning familiyasi — Raskolnikov — ruscha "raskol" (bo'linish, parchalanish) so'zidan olingan. Bu shunchaki tasodif emas, balki qahramonning ichki olamidagi ikki qutb — sovuq mantiqqa asoslangan "nazariya" hamda tirik insoniy "vijdon"ning o'zaro bo'linib ketganiga ishoradir. U o'z ismiga mos ravishda ikki dunyo orasida qoladi: bir tomondan ezilganlarga yordam bergisi keladi, ikkinchi tomondan esa o'zining "buyukligini" qotillik orqali isbotlashga urunadi. Dostoyevskiyning asardagi har bir detalga, hattoki ismlarda ham bor e'tibor va mas'uliyat bilan yondashgani shu o'rinda yaqqol ifodasini topadi.

Etik to'siq: Vijdonning g'alabasi. Dostoyevskiy aytmoqchiki, inson o'z mantiqi bilan har qanday jinoyatni oqlashi mumkin, biroq insonning ichidagi "ilohiy ovoz" — vijdonni aldab bo'lmaydi. Raskolnikov sudxo'r kampirni o'ldirish orqali o'zini Napoleonlar qatorida ko'rmoqchi edi, biroq natijada u o'zining insoniy tabiatini jarohatladi. Uning jinoyatdan keyingi ruhiy iztiroblari, yurish turishi, yeyish-ichishida butkul halovat topmagani, isitmasi va yolg'izlanib qolishi — bu vijdonning sovuq nazariya ustidan qozongan g'alabasidir.

Insoniyat uchun yechim: Mehr va tavba. Muallif insoniyat uchun najot yo'lini Sonya Marmeladova timsolida ko'rsatadi. Sonya kibr bilan emas, balki sabr va boshqalarga bo'lgan cheksiz muhabbat (altruizm) bilan yashaydi. Raskolnikov o'zining "buyukligini" isbotlash uchun boshqa bir insonni qurbon qildi. Sonya esa o'z oilasini, yaqinlarini ochlikdan qutqarish uchun o'zining or-nomusi va hayotini qurbon qildi. Asarning eng kulminatsion nuqtalaridan biri — Sonyaning Raskolnikovga Lazarning tirilishi haqidagi qissani o'qib berishidir. Bu ramziy ma'noda Raskolnikovning ham ma'naviy "o'limi"dan keyin qayta tirilishi mumkinligiga ishoradir. Sonya unga shunchaki kechirim emas, balki tavba qilishni o'rgatadi. Uning: *"Hoziroq borib, chorrahada tizzang bilan yer o'p va butun dunyoga 'Men qotilman' deb baqir"*, degan chorlovi — inson o'z aybini tan olmasdan turib, najot topa olmasligi haqidagi qat'iy ogohlantirishdir.

Najot — insoniylikni saqlab qolishda: Raskolnikovning najoti u qamoq jazosini (katorga) qabul qilganida emas, balki Sonyaning sevgisi va e'tiqodi orqali o'z qalbida "tirik hayot"ni his qilganida namoyon bo'ladi. Dostoyevskiy bu orqali insoniyatga

shunday maktub yo‘llaydi: dunyoni bolta tig‘i yoki zo‘ravonlik bilan emas, balki faqat mehr-shafqat, kechirim va ma‘naviy poklanish orqali qutqarish mumkin. Najot — kuchli bo‘lib boshqalarni ezishda emas, balki eng og‘ir sharoitda ham Inson bo‘lib qolishdadir.

Xulosa. "Jinoyat va jazo" — bu shunchaki o‘tgan asrning hikoyasi emas, balki har bir davr insoniyatiga yo‘llangan buyuk ma‘naviy ogohlantirishdir. Dostoyevskiy bizni hushyorlikka chorlab, hech qanday "buyuk" g‘oya, mafkura yoki ijtimoiy maqsad bitta inson hayotidan aziz emasligini uqtiradi. Raskolnikovning achchiq tajribasi shuni isbotlaydiki, inson o‘z mantiqi bilan jinoyatni oqlashi mumkin, biroq qalb xotirjamligini faqat ezgulik orqali topadi. Haqiqiy buyuklik boshqalardan baland turishda yoki qonunlarni buzishda emas, balki eng murakkab vaziyatlarda ham o‘z vijdoni bilan murosada yashay olishdadir. Zero, dunyoni o‘zgartirishga urinishdan ko‘ra, o‘z nafsi va kibrini yengib, inson bo‘lib qolish — dunyodagi eng qiyin va eng sharaflig‘alabadir. Dostoyevskiyning ushbu o‘lmas maktubi bizni har doim qalb pokligi va insoniylikni hamma narsadan ustun qo‘yishga o‘rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dostoyevskiy F.M. "Jinoyat va jazo" (I. G‘afurov tarjimasini). —"Yangi asr avlodi", 2015.
2. Baxtin M.M. "Dostoyevskiy poetikasi muammolari". —1979.
3. Sultonov I. "Adabiyot nazariyasi". —"O‘qituvchi", 2005.
4. <https://standardebooks.org/ebooks/fyodor-dostoevsky/crime-and-punishment/constance-garnett>
5. <http://www.gradesaver.com/classicnotes/titles/crimeandpunishment/about.html>
6. https://kitobxon.com/oz/kitob/jinoyat_va_jazo